

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 22-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 24-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 26-noyabr 2026-yil

ADVOKATURA INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INSON HUQUQLARINI TA’MINLASH

Ulashova Shahnoza Otaqul qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro tijorat huquqi fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu borada "Mustaqil advokatura konsepsiyasi" ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi kerak. Tergov va sudning barcha bosqichlarida advokatning roli yanada oshirilishi, advokatura institutining mustaqilligi, advokatlarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarining samarali himoyasini ta’minlash kerak. Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad: O‘zbekistonda Advokatura institutini takomillashtirish orqali advokatlarning fuqarolarga o‘z vaqtida va sifatli malakali yordam ko‘rsatishini ta’minlash.

Kalit so‘zlar: advokatura, yuridik yordam, inson huquqlari, qonuniylik, mustaqillik, o‘zini o‘zi boshqarish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil advokatura konsepsiyasi, raqamli advokatura.

Аннотация: Новая стратегия развития Узбекистана предусматривает эффективную организацию независимой адвокатской деятельности. Защита прав, свобод и законных интересов граждан в судебно-следственной деятельности является актуальной задачей на сегодняшний день. В связи с этим необходимо разработать и реализовать на практике «Концепцию независимой адвокатуры». На всех стадиях следствия и судебного разбирательства должна быть повышена роль адвоката, обеспечена независимость института адвокатуры, эффективная защита прав и законных интересов адвокатов. Основной целью написания данной статьи является обеспечение оказания адвокатами своевременной и качественной

квалифицированной помощи гражданам путем совершенствования института адвокатуры в Узбекистане.

Ключевые слова: адвокатура, юридическая помощь, права человека, законность, самостоятельность, самоуправление, современные информационно-коммуникационные технологии, концепция независимой адвокатуры, цифровая адвокатура.

Abstract: The new development strategy of Uzbekistan envisages the effective organization of independent advocacy activities. Protecting the rights, freedoms and legal interests of citizens in judicial and investigative activities is an urgent task today. In this regard, the "Concept of Independent Advocacy" should be developed and put into practice. At all stages of the investigation and trial, the role of the lawyer should be increased, the independence of the bar institute, the effective protection of the rights and legal interests of lawyers should be ensured. The main purpose of writing this article is to ensure that lawyers provide timely and quality qualified assistance to citizens by improving the Institute of Advocacy in Uzbekistan.

Keywords: advocacy, legal aid, human rights, legality, independence, self-management, modern information and communication technologies, concept of independent advocacy, digital advocacy.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuritayotgan siyosat markazida inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadi mujassam. So‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta’minlashga, shuningdek, inson, uning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, qonuniy manfaatlari cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan keng ko‘lamli ishlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida ta’kidlanganidek, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning eng muhim vazifasidir”.

Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadi – “Advokatura institutining inson huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish”dan iborat.

Bu ustuvor maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

birinchidan, advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish va advokaturaga yosh malakali kadrlarni jalb qilish;

ikkinchidan, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish;

uchinchidan, advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va institutsional asoslarini shakllantirish;

to‘rtinchidan, advokatlik faoliyatini raqamlashtirish. Boshqacha aytganda, advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish;

beshinchidan, bepul huquqiy yordam ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish nazarda tutilmoqda.

Respublikamizda advokatura institutini sud-huquq tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida takomillashtirish maqsadida advokatlarning jinoiy, fuqarolik, ma’muriy va iqtisodiy ishlarni ko‘rib chiqishdagi ishtiroki va ahamiyatini oshirish, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Advokatlarning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan qonunchilik bazasi izchillik bilan shakllantirilmoqda, yuridik yordam va yuridik maslahat xizmati ko‘rsatish tizimi takomillashtirilmoqda.

Bugungi kunga kelib yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda advokaturaning maqomi yanada mustahkamlanib, “Advokatura” nomli alohida 24-bob bilan to‘ldirildi.

Shu o‘rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan advokaturaga oid qoidalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, Konstitutsiyaning 141-moddasida muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi.

Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi.

Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

Ushbu moddada advokaturaning faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish tamoyillariga asoslanishi Konstitutsiya darajasida mutahkamlanmoqda. Bunda, advokatura faoliyatining qonuniyligi deganda advokatlik faoliyati faqat qonunga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasiga asosan, advokatning mustaqilligi: unga qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijozat berish, bu faoliyatni to‘xtatib turish va tugatish,



advokatning daxlsizligi;

advokatlik sirini oshkor etishni talab qilishni man etish;

advokat olib borayotgan ishlarga aralashganlik yoxud advokatning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik;

davlat tomonidan unga advokatlik faoliyati kafolatlari berilishi hamda ijtimoiy himoyalanishi orqali ta’minlanadi.

Konstitutsiyamizning 142-moddasiga asosan, advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan to‘siqlarsiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanadi.

Advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Advokatning kasbiy faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi kuchli advokatura tizimini yaratishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qoida “hech bir idora advokatlarning faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi shart” degan g‘oyaning konstitutsiyaviy ifodasi hisoblanadi. Ushbu norma sud protsessida advokat prokuror bilan tengma-teng munozaraga kirishishini ta’minlaydi, ish bo‘yicha dalillarni to‘plash va taqdim etish faoliyatiga aralashmaslik natijasida advokaturaning

huquqiy holati mustahkamlanadi.

Advokatlik faoliyatidagi erkinlik va har qanday to‘siqlarni bartaraf etish, nafaqat advokatning ishini yengillashtiradi, balki advokat himoya qilayotgan shaxsning qonuniy huquq va manfaatlarini yanada ta’minlaydi.

Bugungi kunda Konstitutsiyaga kiritilgan ko‘plab o‘zgarishlar ayniqsa "Advokatura" sohasidagi yangiliklar mamlakatimizning advokatlar hamjamiyatini quvontirganligini e’tirof etish lozim. Chunki, advokatura va advokatlik faoliyatining huquqiy maqomi Konstitutsiyamizning alohida bobida belgilanayotganligi advokatlarning jamiyatdagi mavqeini yanada yuqori darajada ko‘tarilayotganligini anglatadi.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoya qilishini, odil sudlovni ta’minlovchi muhim shaxs sifatida advokatlar maqomini oliy yuridik kuchga ega hujjat Konstitutsiya darajasida mustahkamladi.

Mamlakatimizda advokatura institutining salohiyatini oshirish uchun boshqa bir qator muhim hujjatlar ham ishlab chiqilmoqda. Fikrimcha, shulardan biri – Advokatura to‘g‘risidagi kodeksni ishlab chiqish zaruratidir. Ushbu kodeksda sohaga oid barcha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar o‘z mujassamini topishi lozim.

Yuridik xizmat ko‘rsatish sohasining huquqiy asoslari ham takomillashtirilmoqda. Xususan, “Shartnomaviy huquqiy baza va yuridik xizmat to‘g‘risida”gi hamda “Bepul yuridik yordam to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek, Aholini yaxlit huquqiy himoya qilish konsepsiyasi loyihalari tayyorlanmoqda.

Mustaqil advokatura konsepsiyasini tayyorlash bo‘yicha ham qizg‘in ishlar olib borilmoqda. Konsepsiya, xususan:

– Tergov va sudning barcha bosqichlarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida advokatning rolini mustahkamlash;

– Advokatlar palatasining faoliyatini yanada takomillashtirish, uning tom ma’nodagi mustaqilligini ta’minlash, advokatura institutini to‘liq o‘zini o‘zi boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldida hisobdorligini oshirish, tizimga yosh va malakali mutaxassislarni jalb etish.

– “raqamli advokatura”ni rivojlantirish kabi asosiy yo‘nalishlardagi vazifalarni o‘zida qamraydi.

Mamlakatimizda Raqamli Advokaturani rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda:

birinchidan, advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ikkinchidan, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta’minlash maqsadida advokatura, sud va huquqni muhofaza qilish organlari hamda boshqa davlat organlari o‘rtasida elektron ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;

uchinchidan, advokatlar tomonidan maxsus axborot dasturi orqali jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn yuridik yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish;

to‘rtinchidan, advokatura faoliyati uchun zarur axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlarni shakllantirish hamda ularda saqlanadigan ma’lumotlarning kompleks himoya qilinishi va maxfiyligini ta’minlash lozimligini qayd etish muhim.

O‘zbekistonda Advokatura tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati katta. Binobarin bu boradagi yangi qadamlar tizim faoliyatida inson omilini bartaraf etish orqali advokatura institutining davlat organlari va boshqa tuzilmalardan mustaqilligini oshirish imkonini beradi.

Advokatura – davlat organi emas, balki o‘z ishini yaxshi biladigan va zimmasidagi vazifalarning mas’uliyatini chuqur anglaydigan mohir kasb egalarining hamjamiyatidir. Shu ma’noda, quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman:

birinchidan, Advokatura kuni – advokatlar hamjamiyati vakillarining kasb bayrami sanasini belgilash;

ikkinchidan, “Eng yaxshi advokat” ko‘krak nishonini ta’sis etish;

uchinchidan, “Advokatlarning yagona davlat reestri”ni shakllantirish orqali nafaqat fuqarolar, balki huquqni muhofaza qilish organlari va sudlar uchun ham juda asqotadigan yaxlit, ochiq va ishonchli axborot manbasini yaratish

to‘rtinchidan, Advokatlar malakasini oshirishni kuchaytirish va kadrlar tanqisligi masalasi

beshinchidan, yuridik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida advokat kadrlarni tayyorlash, “Advokatlik huquqi” o‘quv kursini joriy etish, talabalarning advokatura sohasida amaliyot o‘tishini tashkil etish kabi masalalarga alohida ahamiyat berilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, 1996-yil qabul qilingan Advokatura to‘g‘risidagi qonun loyihasi qarib 20 yildan oshibdiki advokat faoliyatini tartibga soladigan eng mukammal qonun loyihasi bo‘lgan va hozirgacha shunday bo‘lib qolmoqda. Sohadagi eng katta muammo esa qonun qabul qilingan kundan to shu bugungacha uning ijrosi yetarli darajada ta’minlanmagani va sud-huquq sohasi xodimlarining advokat shaxsiga behurmatlarcha qaralishi bo‘lajak kadrlarni bu kasbni egallashga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib, faqatgina prokuror va sudyalar kasbiga qiziqishini ortishiga sabab bo‘ldi. Mening nazarimda advokat bu sud jarayonida asosiy rollardan birini amalga oshiruvchi shaxs. . Hozirgi qonunga ko‘ra, faqat jinoyat ishlari uchun davlat tomonidan bepul yuridik yordam berish uchun advokat yollanmoqda. Fikrimcha faqatgina jinoyat sud ishlarida emas balki iqtisodiy, ma’muriy va fuqarolik ishlarida ham bepul yuridik xizmatni amalga oshirish uchun advokat berilishini taklif qilgan bo‘lardim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. insonhuquqlari.uz Yangi O‘zbekiston Advokaturasi: Taraqqiyot strategiyasi.

2. Nauchniyimpuls.ru Advokatura institutini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari.

3. xs.uz Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda advokaturaning o‘rni.

4. uzlidep.uz

5. uzbekistan-geneva.ch

6. O‘zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida" gi Qonunining 5-moddasi.

7. lex.uz